

Aniq va tabiiy fanlar fakulttei Musiqa ta'lim yo'nalishi 1-kurs MUS-BU-24 guruh talabasi

Po'latjonova Intizora Nazirjon qizi

Ilimiy rahbar

Shokirxanov Baxtiyorxon Botirxonovich

Annotatsiya:

O'zbekistonda professional xor san'ati 20-asr boshlarida shakllanib, asta-sekin rivojlandi. Dastlab xor san'atini rivojlantirish uchun zarur sharoitlar mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, rus va o'zbek musiqachilarining hamkorligi, xor ijrosini o'z ichiga olgan opera va dramatik asarlarning yaratilishi bu yo'nalishga mustahkam poydevor yaratdi. 1930–40-yillarda “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Gulsara” kabi operalarda xor elementlari paydo bo'ldi. 1936-yilda O'zbekiston radiosi va Davlat Filarmoniyasi qoshida xor jamoalari tuzildi, ular Moskvadagi dekadalarda muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

1940–50-yillar xor ijrochiligi uchun muhim davr bo'lib, harbiy-vatanparvarlik ruhidagi kontata, syuita va xor asarlari yaratildi. M.Ashrafiy, S.Yudakov, M.Burxonov, T.Sodiqov, A.Kozlovskiy kabi kompozitorlar xor janrining yuksalishiga katta hissa qo'shdilar. 1952-yilda birinchi professional xor kapellasi tashkil etilib, a'kapella janrining rivoji boshlandi. 1960-yillarda O'zbekiston radio va televideniyesi qoshida Milliy xor jamoasi faoliyat boshladi.

Keyingi yillarda xor san'ati ko'p ovozli murakkab shakllarda – kontata, oratoriya, ballada va a'kapella janrlarida boyidi. Xalq qo'shiqlarini xor uchun moslashtirish va o'quv dasturlariga kiritish orqali xor ijrosi ommalashtirildi. B.Umidjonov, S.Bobojev, I.Akbarov, M.Burxonov, M.Ashrafiy kabi ijodkorlarning faoliyati xor san'atining mustahkam rivojlanishiga zamin yaratdi.

Kalit so'zlar: *Xor san'ati, o'zbek musiqasi, xor ijrochiligi, an'anaviy va zamonaviy musiqasi, musiqasi ta'limi, xor jamoalari, o'zbek kompozitorlari, madaniyat va san'at, vokal ansambllar*

Факультет точных и естественных наук, музыкальное образование, 1 курс, студентка группы МУС-БУ-24 Пулатжонова Интизора Назиржонович Научный руководитель Шокирханов Бахтиёрхон Ботирхонович

Развитие хорового искусства в Узбекистане

Аннотация:

Профессиональное хоровое искусство в Узбекистане начало формироваться в начале XX века и постепенно развивалось. Несмотря на отсутствие необходимых условий в первые годы, сотрудничество русских и узбекских музыкантов, а также создание опер и драматических произведений с элементами хорового исполнения заложили прочную основу для дальнейшего роста. В 1930–1940-х годах в операх «Фархад и Ширин», «Лейли и Маджнун», «Гульсара» появились первые формы хоровых партий. В 1936 году при Узбекском радио и Государственной филармонии были созданы хоровые коллективы, которые успешно выступили на Декаде узбекской литературы и искусства в Москве.

1940–1950-е годы стали важным этапом для хорового искусства. В этот период были созданы кантаты, сюиты и хоровые произведения на военно-патриотическую тематику. Композиторы М. Ашрафи, С. Юдаков, М. Бурханов, Т. Садыков, А. Козловский внесли значительный вклад в развитие жанра. В 1952 году была основана первая профессиональная хоровая капелла,

начался стремительный рост жанра акапелла. В 1960-х годах при Узбекском радио и телевидении начал работу Национальный хор.

В последующие годы хоровое искусство обогатилось многоголосными произведениями в жанрах кантаты, оратории, баллады и акапеллы. Обработка народных песен для хорового исполнения и включение их в учебные программы способствовали популяризации хорового пения. Творчество таких композиторов, как Б. Умиджонов, С. Бобоев, И. Акбаров, М. Бурханов, М. Ашрафи, сыграло важную роль в укреплении и дальнейшем развитии профессионального хорового искусства.

Ключевые слова: хоровое искусство, узбекская музыка, хоровое исполнение, традиционная и современная музыка, музыкальное образование, хоровые коллективы, узбекские композиторы, культура и искусство, вокальные ансамбли.

Faculty of Exact and Natural Sciences, Music Education, 1st year, MUS-BU-24 group student Pulatjonova Intizora Nazirjonovich Scientific advisor Shokirkhanov Bakhtiyorxon Botirkhonovich

Development of Choral Art in Uzbekistan

Annotation:

Professional choral art in Uzbekistan began to take shape in the early 20th century and gradually developed. Although there were initially no necessary conditions for its growth, the collaboration between Russian and Uzbek musicians, as well as the inclusion of choral performance in operas and dramatic works, laid a solid foundation for this field. In the 1930s–40s, operas such as Farhod and Shirin, Layli and Majnun, and Gulsara featured elements of choral performance. In 1936, choral ensembles were established under Uzbek Radio and the State Philharmonic, which successfully performed at the Uzbek Literature and Art Decade in Moscow.

The 1940s–50s became a pivotal period for choral performance, marked by the creation of patriotic-themed cantatas, suites, and choral works. Composers such as M. Ashrafi, S. Yudakov, M. Burkhanov, T. Sodiqov, and A. Kozlovsky made significant contributions to the choral genre. In 1952, the first professional choral cappella was founded, initiating the rapid development of the a cappella genre. In the 1960s, the National Choir under the Uzbek Radio and Television Committee began its activities.

In subsequent years, choral art was enriched with complex polyphonic compositions in the genres of cantata, oratorio, ballad, and a cappella. The adaptation of folk songs for choral performance and their inclusion in educational programs helped popularize choral singing. The creative contributions of composers such as B. Umidjonov, S. Boboev, I. Akbarov, M. Burkhanov, and M. Ashrafi laid a strong foundation for the future advancement of professional choral art in Uzbekistan.

Keywords: choral art, Uzbek music, choral performance, traditional and modern music, music education, choral ensembles, Uzbek composers, culture and arts, vocal ensembles.

O'zbekistonda professional xor san'ati eng kech rivojlana boshlagan san'at turlaridan biridir. Chunki dastlabki yillarda professional xor san'atini rivojlantirish uchun shart -sharoitlar yo'q edi. Ma'rif va madaniyat sohasida qator muhim tadbirlar o'tkazildi va asta- sekin amalga osha bordi. Rus musiqa san'ati arboblari: V.Uspenskiy, Ye.Romanovskaya, N.Mironov, R.Glier, S.Vasilenko, A.Kozlovskiy va o'zbek kompozitor, bastokorlarining vujudga kelishi tub o'zgarishlarning boshlanish nuqtasi bo'lib hisoblanadi.

1930 yillarda yozilgan musiqa drammlarida “Farhod va Shirin”, V.Uspenskiy va G.Muniel “Gulsara”, R.Glier va T.Sodiqov musiqalarida xor ijrochiligining oddiy formalari mavjud. Keyinchalik ko’p ovozli xor asarlari yozila boshlandi.

1936 yilda o’zbekiston radiosi qoshida o’zbek xori tuzildi. Bu xorga L.B.Shteynberg rahbarlik qildi. Shu yilda o’zbekiston Davlat Filarmoniyasi qoshida xor kapellasi tashkil qilindi. Unga M.Lepyoxin rahbarlik qildi. U jamoa M.Ashrafiy va T.Sodiqovning to’r ovozli xor asarlarini, musiqa drammlaridagi xor nomerlarini 1937 yilda Moskvada bo’lib o’tgano’zbekiston adabiyoti va san’ati dekadasida namoyish qildi va yuqori baholandi. Haqiqatda qisqa vaq ichida namunali xor jamoasi tuzilib, ijodiy yutuqlarga erishdi. Bu yutuqlar respublikamizda professional xor jamoalari ishini yanada rivojlanishiga turtki bo’ldi. 1934-1937 yillar davomida Moskva Konservatoriyasida yangi tashkil qilingan opera studiyasini har xil bo’limlarida O’zbekistondan kelgan iste’dodli yoshlar ham o’qidi. Karim Zokirov, G’ulom Abduraxmonov, Mixail va Morduxay Davidovlar, Muxtor Ashrafiy, Sara Samandarova, Fazliddin SHamsiddinov, Mardon Nasimov, Nasim Xoshimov, Boborahim Mirzaev, Salima Xo’jaeva, Muxiddin Jori Yoqubov, SHonazar Soxibov, David Mullaqandov, Mutal Burxonov, Olim Halimov, Sulaymon Yudakov, Bahrom Inoyatov va boshqalar shu studiyada tahsil olib kelgusida tanilgan xonanda, kompozitor bo’lib yetishdilar va o’z mehnat faoliyatlarini bilim yurtlari, maktablar, kontser tashkilotlari, musiqa bilim yurtlari, teatrlari endi iste’dodli yoshlar hisobig ata’minlana bordi.

Rus kompozitorining o’zbek kompozitorlari bilan hamkorligi S.Vasilenko va M.Ashrafiyning birinchi o’zbek operasi “Buron” yaratildi. 1940 yilda “Ulug’ kanal” operasi R.Glier va T.Sodiqovning “Layli va Majnun” operalari yozildi.

1941 yillarda kompozitor va bastakorlar ijodida xarbiy Vatanparvarlik mavzusi asosiy o’rin egalladi.

G’. Qodirovning “Botir askar”, D.Zokirovning “Qasos ol”, M.Burxonovning “Jangchi qo’shig’i”, .Ashrafiyning “Ulug’ qo’mondon”, Yu.Rajabiyning “Vatan”, T.Jalilovning “Uch komandir”, “Aziz Vatan”, U.Tolmasovning “Tankchi qasami”, kabi xor qo’shiqlari yozildi.

Shu yillarda yirik formadagi vokal-simfonik asarlar ham yozildi. S.Yudakovning “G’alaba” kontatalari G.Mushelning “Farxadstroy” kontatasi, B.Arapov va A.Kozlovskiyning “Jaloliddin” kabi kontatalari shular jumlasidandir. A.Kozlovskiyning “Ulug’bek” operasi, O.Chishkoning “Maxmud Tarobiy” operalari yozildi. Bu asarlarda ko’p ovozli xor saxnalari mavjud edi.

1944 yili “O’zbekistonda san’atni yanada rivojlantirish tadbirlari haqida” qaror chiqdi. Musiqa xor san’atini ommalashtirish, uni targ’ibot qilish ishlarini jonlantirish zarur edi. Bunga Leningrad konservatoriyasi professori A.Egorov va boshqa xormeysterlar o’zlarining munosib xissalarini qo’shdilar.

Ulug’ Vatan urushi davrida musiqa dramatik janrida katta yutuqlarga erishildi. M.Ashrafiyning “O’zbekiston”, “Baxt qo’shig’i” kontatasi, S.Yudakovning “Mirzacho’l” syuitasi Davlat mukofotiga sazovor bo’ldi.

1951-yilda Moskvada o’tkazilgan ikkinchi o’zbek adabiyoti va san’ati Dekadasida shu asarlar ijro etildi.

1952-yilda o’zbekiston Davlat Filormaniyasi qoshida birinchi professional xor kapellasi tashkil qilindi. Badiiy rahbar S.Valenkov xormeyster A.Sultonov tayinlandi. Kapella uchun M.Burxonov o’zining birinchi jo’rsiz xor qo’shiqlarini yaratdi. Shunday qilib Respublikada a’kapella janri vujudga keldi.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-7

Kapella dasturida qariyb barcha qardosh Respublikalar kompozitorlarining asarlari va xalq qo'shiqlari bor edi. Ularning rang-barang xor asarlari butun sobiq ittifoq shaharlarida kontsertlarda yangradi. 1967 yili Butun ittifoq professional badiiy kollektivlar konkursi laureati bo'lgan. Bu kapella Respublikada xor madaniyatining rivojlanishiga mazkur jamoaning ahamiyati kattadir.

1960-yilda tashkil etilgan o'zbekiston radio televideniyesi Davlat komiteti milliy xorining salmoqli xissasi bor. B.Umidjonov boshchiligidagi ajoyib ijodiy yutuqlarga erishdi. Bu jamoani ijodiy yuksalishi, kuylagan xor asarlari nafaqa o'zbek muxlislariga, balki butun olamga xam yaxshi tanishdir.

1950 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab opera janrida ham ijodiy yuksalish ko'zga tashlanadi. 1950 yillarda quyidagi operalar yaratildi:

“Gulsara”, R.Gilerva T.Sodiqov

“TohirZuhra”, T.Jalilov, B.Brovtsin

“Farxodvashirin” G.Mushelb, V.Uspenskiy

“Layli vaMajnun”, R.Glier, T.Sodiqov

“Ulug'kanal”, M.Ashrafiy, S.Vaselenko.

“Ulug'bek”, A.Kozlovskiy 1960 yillarda yozgan.

“Dilorom”, M.Ashrafiy.

“Zaynabva Omon”, T.Sodiqov, Yu.Rajabiy, B.Zeydman, D.Zokirov.

“Maysaraningishi” S.Yudakov.

“SHoirqalbi”, M.Ashrafiy.

“Xamza”, S.Boboiev.

“Xorazm qo'shig'i”, M.Yusupov.

“Zulmatdanzijo”, R.Xamroev.

“Oyjamol”, R.Xamroev.

“So'g'dqizi”, I.Akbarov.

“Mangulik”U.Musaev.

va boshqa operalarning ko'pchiligi xor saxnalari bo'lib mukammal ko'p ovoqli xor musiqalari o'z o'rnini topgan. Yuqorida qayd qilingan operalarning yaratilishi opera-xor ijrochiligini rivojlanishiga olib keldi. Kontata, oratoriya, syuita, oda, ballada, jo'rsiz xor asarlari va ommaviy xor asarlari yaratildi.

Masalan: S.Yudakovning quyidagi “G'alaba”, “Mening vatanim”, “Muborakbod”, “Tusna” kontatalari va “Mirzacho'l” syuitasi; M.Ashrafiyning “o'zbekiston”, “Bax qo'shig'i” kontatasi; I.Hamroevning “O'zbekiston xotin qizlariga” kontatasi; A.Xalilovning “Qaraqalpog'iston” kontatasi; S.Boboievning “Paxta bayrami” kontatasi; I.Akbarovning “Toshkentnoma” oratoriyasi va “Xamsa” kontatasi; M.Burxonovning “Alisher Navoiyga qasida”; M.Nasimovning “Dilbarim” syuitasi, D.Zokirov, B.Umidjonov “Asrim sadosi” kontatalari xor janrlarini boyitdi. Professional xor san'atini rivojlantirdi. Professional xor ijrochiligi bilan bog'liq bo'lgan a'kapella janri ham tez sur'atlarda rivojlandi. Masalan: M.Burxonovning “Yorlarim”, “Go'zal qizga”, “Sayra”, “Zarra gul”, “Bibigul”, “Sari ko'xi baland”; A.Muhammedovning “Yashna xur Vatan”, S.Boboievning “CHamanichra”, “Yali-yali”, “Endisendek”, “Xalqimiz baxti”; I.Akbarovning “Qoyilman”; A.Muhammedov musiqasini xorga moslashtirgan “Alla”; V.Knyazatovning “Gulpak”; V.Knyazatov a'kapellasi xorga moslashtirgan “Mo sar nixodam” asarlari barcha o'quv xorlari dasturidan o'rin oldi. B.Umidjonovning 100 dan ortiq xalq qo'shiqlari asosida yaratgan

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-7

a'kapellalari hozirgacha o'quv xorlarida sevib ijro qilinmoqda. Masalan: "Yapuray", "Jorasoch", "Ililayor", "Og'adarom", "Gal bari", "Xurshidjahongaldi", "Jomuzchi", "CHamandagul" va "Dilbaruma" xor syuitasi va boshqa xor asarlari radio televidenie orqali yangrab kelmoqda. S.Boboev "Tanovor", "Bog' sayliga", "Galdir" kabi klassik ashulalar asosida xor asarlari yaratdi.

M.Burxonov o'zbek, tojik, afg'on, eron, qaraqalpoq xalq qo'shiqlarini xor uchun qayta ishladi. "Ayriliq", "Damko'l-damko'l", "Chashmi siyoh", shu bilan bir qatorda o'bek musiqa xor janrini yuksalishida o'zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan xor asarlari, kelajakda professional xor ijrosining yuksalishiga zamin yaratdi.

Klassik merosni xorga qayta moslashtirishda S.Boboev, M.Burxonov, I.Akbarov, M.Nasimov, I.Xamroev, G.Jodirov, M.Yusupov, S.Djalil, P.Xoliqov, A.Berlin, S.Varelas, M.Bafoev, B.Umidjonov, T.Demilov, bolalar kompozitorlari E.Nalbandov, N.Norxodjaev, M.Tadjiev, A.Xoshimov, SH.Yormatovlarning serqirra boy ijodi va boshqa kompozitorlar xor janrini rivojlanishida alohida o'rin tutadilar.

Musiqa lug'ati

1. Syuita – (frants. so'z bo'lib, ketma-ketlik ma'nosini bildiradi.) birnechakontras , mustaqilqismlardanibora bo'ladi.
2. Kontata – (inglizcha so'z bo'lib, "cantare" kuylayman ma'nosini bildiradi.) Xor yakkaxon, orkestr fortepiano uchun bir necha Mustaqil qismlardan iboratdir.
3. Ballada – (lotincha so'z bo'lib, raqs tushaman degan ma'noni bildiradi.) xor, raqs va qo'shiqlardan ibora . Fantastik yoki dramatik xarakterda bo'ladi.
4. A'kapella – jo'rsiz ijro. Kuylaydigan joy ma'nosini bildiradi.
5. Oratoriya – lotincha so'z bo'lib, iltijo qilaman, so'zlayman degan ma'noni bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston musiqasi tarixi" T.E.Solomonova T.1983 y.
2. Sh.Ro'ziev "Xorshunoslik" T.!987 y.
3. V.Gudkova "Uzbekskaya xorovaya interatura" T. 1974 g.
4. S.Valenkov "Xavaskorlikxori" A.Vinejev, R.xublarov T. 1970 y.
5. Shokirkhonov, Bakhtiyorkhon. "PEDAGOGICAL CONDITIONS OF MASTERING MUSIC-THEORETICAL KNOWLEDGE IN SPECIALIZED MUSIC CHOOOLS." *Развитие педагогических технологий в современных науках* 4.2 (2025): 72-76.
6. Botir Khanovich, Shokirkhanov Bakhtiyorkhon. "THE ROLE OF MUSIC CLUBS IN LEADING THE YOUNG GENERATION TO MATURITY." *Academia Repository* 5.1 (2024): 242-245